



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASSTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLİYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadriiddin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich

Urganch davlat universiteti (UrDU) Stajyor-o'qituvchisi

ORCID: 0009-0001-0289-594X

Email: Dunyouz@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada mintaqaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, ularning investitsiyalar bilan bog'liqligi o'rganilgan. Shuningdek, mintaqada kapital qaytimi, kapital sig'imi, investitsiya me'yori kabilarning tarmoqlar bo'yicha o'zgarish tendensiyalari ham baholandi. Natijalarga muvofiq mintaqada investitsiya samaradorligini umumiy iqtisodiyotda va sanoatda oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya me'yori, kapital qaytimi, kapital sig'imi, mintaq, Xorazm.

Аннотация: В статье рассматриваются основные экономические показатели региона и их взаимосвязь с инвестициями. Также оцениваются тенденции капиталоотдача, капиталоемкости и норма инвестиций в регионе по секторам экономики. На основе полученных результатов предлагаются меры по повышению эффективности инвестиций в регионе как в экономике в целом, так и в промышленности.

Ключевые слова: инвестиции; темпы инвестиций; доходность капитала; капиталовложения; регион; Хорезм.

Abstract: This article examines the region's key economic indicators and their relationship with investment. It also assesses trends in capital productivity, capital intensity, and investment rates across economic sectors. Based on the findings, measures are proposed to improve investment efficiency in the region, both in the economy as a whole and in industry.

Key words: investments; investment rates; return on capital; capital investments; region; Khorezm.

KIRISH

O'zbekistonda investisiyalarni moliyalashtirish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi investisiyalarni moliyalashtirishda chet el kapitalini jalb qilish zarurati va bevosita xorijiy investisiyalarni iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirishdagi rolining yuqoriligi, qo'shma korxonalar faoliyatida ayrim muammolarning mavjudligi va ularni bartaraf etish zarurati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni investitsiyalar, xususan lizinglar orqali moliyalashtirish va uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati masalasi nafaqat amaliy, balki ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar amaliyoti turli tarmoqlarda samarali qo'llanilib, investitsiyalarni jalb qilishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Yevropada "Leaseurope" federatsiyasi orqali 46 ta davlatdagi lizing assotsiatsiyalari o'zaro hamkorlik qilib, texnika va transport sohalariga kiritilgan lizing hajmining o'sishini ta'minlamoqda¹. AQSHda esa

1 Leaseurope. Leaseurope Index Q4 2024 / Table 1: Aggregate Data, Q1 2023 – Q4 2024.Brussels, 2024. 3 b. URL: www.Leaseurope.org



ELFA 575 dan ortiq kompaniyani birlashtirgan holda moliyaviy lizing bozorining yetakchi tashkiloti hisoblanadi². Buyuk Britaniyada FLA, Germaniyada BDL kabi assotsiatsiyalar lizing bozorining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi³. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar, masalan, Giddy I.H. (2019) va UNCTAD (2023), investitsiyalarning global moliya bozorida ahamiyati va iqtisodiyot rivojiga ta'sirini yoritadi⁴. O'zbekistonda lizing faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Lizing to'g'risida"gi 756-I-son⁵ Qonuni bilan tartibga solingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son⁶ Farmonida strategik yo'nalishlarga investitsiyalarni jalb qilish va lizing mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, Urazaliyev B.S. (2025) xalqaro investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini amaliy jihatdan tahlil qilgan⁷.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro investitsiyalar milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilishda samarali vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi esa O'zbekistonda investitsiya faoliyatini takomillashtirish va qonunchilikni optimallashtirishda muhim manba hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat salohiyatini oshirishda mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samaradorligini tahlil qilish uchun komparativ va solishtirma metodlar, statistik tahlil, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy manbalarni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Xorijiy va milliy investitsiya tashkilotlari faoliyati bo'yicha rasmiy hisobotlar, xalqaro statistika ma'lumotlari va qonun hujjatlari o'rganildi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ularning investitsiya mexanizmlari solishtirildi, milliy iqtisodiyotga tatbiq qilish imkoniyatlari aniqlab olindi. Tadqiqot nazariy tahlil, amaliy misollar va statistik ko'rsatkichlar asosida olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lmoqda. Jumladan, mintaqaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichi — yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati 2010–2025-yillarda o'rtacha 106,6 foizni tashkil etgan (1-jadval). Shunday bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkich tadqiqot davri davomida tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lgan. Jumladan, 2020-yildagi o'sish sur'ati 100,5 foizga teng bo'lib, bunga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'zgarishlar va pandemiya hisobiga ishlab chiqarish faoliyatida nomuvofiqliklar yuz bergani sabab bo'lgan. Lekin mintaqada ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, 2021-yilning o'zidayoq 110,1 foizlik o'sishga erishilgan.

Xorazm viloyati iqtisodiyotidagi mazkur ijobiy o'zgarishlarga tarmoq va sohalar o'sishi hamda resurslar ta'siri yuqori bo'lgan. Ayniqsa, sanoat tarmog'i hudud iqtisodiyotida drayver sohalardan biri bo'lib, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati ko'rsatkichi o'rtacha 110,8 foizni tashkil etgan. Ushbu ijobiy o'zgarishlar oxirgi yillarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Hatto 2021–2022-yillarda yuqori barqaror o'sish sur'atlari ham qayd etilgan.

Mazkur ijobiy o'zgarishlarga sabab — asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hisoblanadi. Ya'ni, mintaqada kapital omili yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lmoqda. Jumladan, investitsiyalarning o'rtacha o'sish sur'ati 2010–2025-yillarda 119,4 foizni tashkil etgan. Bu ijobiy o'zgarishlar o'z navbatida multiplikatsion va akseleratsion ta'sirlar hisobiga iqtisodiyot barqarorligiga yuqori bog'liqlikni aks ettirgan. Bunda investitsiyalarning har 2,9 foizlik o'zgarishi yalpi hududiy mahsulotning 1 foizlik o'zgarishini ta'minlamoqda. Bu esa ushbu omil samaradorligini oshirish uchun kapital samaradorligini ko'tarishni, mehnat omilidan foydalanish unumdorligiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi (1-jadval).

2 Equipment Leasing and Finance Association (ELFA). Monthly Leasing and Finance Index, December 2025 (MLFI-25). Washington DC, 21 December 2025. URL: www.elfaonline.org

3 Finance & Leasing Association (FLA). Facts & Figures. London, 2025. URL: www.fla.org; Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL). Press Conference of the "LeasingMarket 2024". Berlin, 2024. URL: www.leasingverband.de

4 Giddy I.H. Global Financial Markets. New York: Oxford University Press, 2019. 480 p.; UNCTAD. World Investment Report. Geneva, 2023. 142 p

5 <https://lex.uz/ru/docs/-85259>

6 <https://lex.uz/docs/-5841063>

7 Urazaliyev B.S. Xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro lizingning o'rni. Ilmiy maqola. Toshkent, 2025. 30 b



Yillar	YAHM	Sanoat	Investisiya
2010	106,6	106,5	133,8
2011	106,8	113,9	134,5
2012	109,0	106,4	114,9
2013	109,7	111,5	137,3
2014	107,5	121,5	110,8
2015	109,0	126,2	87,2
2016	104,8	93,1	97,8
2017	104,5	118,3	128,5
2018	103,1	107,9	111,7
2019	107,1	107,5	150,7
2020	100,5	106,1	92,7
2021	110,1	117,2	139,3
2022	107,4	115,0	94,2
2023	104,8	106,4	121,0
2024	106,3	107,0	120,8
2025	107,9	108,4	134,9
O'rtacha	106,6	110,8	119,4

Umuman olganda, tahlil natijalari Xorazm viloyati iqtisodiyotida barqaror o'sish tendensiyasi mavjudligini, sanoat tarmog'i iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida shakllanganini va investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar va sanoat sohasidagi yuqori o'zgaruvchanlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqaror investitsiya muhitini shakllantirish zarurligini ham taqozo etadi.

Xorazm viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulot o'sishiga sanoat ishlab chiqarishi va investitsiyalar ta'sirini to'liq baholash uchun ekonometrik tadqiqotlarni ham amalga oshirdik. Natijada, quyidagi ko'rinishdagi regressiya tenglamasi ishlab chiqildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \varepsilon \quad (1)$$

Bunda: Y – YAHM o'sish sur'ati;

X₁ – sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'ati;

X₂ – investitsiyalar o'sish sur'ati.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi modelni hosil qildik:

$$Y = 84,94 + 0,142 \cdot X_1 + 0,049 \cdot X_2 \quad (2)$$

Natijada, sanoat ishlab chiqarishi ham, investitsiyalar ham yalpi hududiy mahsulot o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Ya'ni, sanoat o'sish sur'atining ta'sirchanligi ijobiy bo'lib, sifat mezonlari quyidagiga teng: t-statistika = 1,878468, P-qiyamati = 0,082926. Shuningdek, investitsiyaning ta'siri ham ijobiy va sifat mezonlari quyidagiga teng bo'lgan: t-statistika = 1,601348, P-qiyamati = 0,13331. Mazkur natijalar esa sanoat ham, investitsiyalar ham ijobiy ta'sirga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shunday bo'lsa-da, ishlab chiqarish natijalarining ta'siri omillar ta'siriga nisbatan 3 marta yuqori ekan. Ya'ni, sanoatning ta'sirchanlik koeffitsiyenti 0,142 ga, investitsiyaning ushbu ko'rsatkichi esa 0,049 ga teng.

Bu esa ushbu manbaning samaradorligini oshirish uchun kapital samaradorligini ko'tarishni, mehnat omilidan foydalanish unumdorligiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Xorazm viloyatida kapital va uning samaradorligini baholash uchun investitsiya me'yori dinamikasini tarmoqlar kesimida tahlil qildik. Bizga ma'lumki, investitsiya me'yori iqtisodiyotda yalpi hamda tarmoq investitsiyalarining ishlab chiqarishga nisbati asosida aniqlanadigan ko'rsatkich sanaladi.

8 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Xorazm viloyati iqtisodiyotida 2010–2025-yillarda investitsiya me'yoring o'rtacha darajasi 21,3 foizga teng bo'lgan (2-jadval). Shunday bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkich tadqiqot davri davomida o'sishga ega bo'lib, 2010-yildagi 14,4 foizdan 2025-yilda 35,9 foizga yetgan. Bu mintaqada investitsiya faolligi keskin o'sganligini ifodalaydi. Hatto, 2021–2025-yillarda o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori kattaliklar qayd etildi. Bu esa ijobiy o'zgarishlarni omilli baholashni, bunda soha va tarmoqlardagi holatga baho berishni talab qiladi.

Jumladan, tarmoq va sohalar kesimida baholaganimizda o'rtacha mintaq ko'rsatkichlariga nisbatan keskin farqlanishlarni aniqladik. Eng yuqori investitsiya me'yori qurilish sohasiga to'g'ri kelib, uning o'rtacha ko'rsatkichi 37,3 foizni tashkil etgan. Sohadagi yuqori investitsiya faolligi infratuzilmani rivojlantirish va yirik qurilish loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida investitsiya me'yori o'rtacha 5,2 foizni tashkil etgan. Bu holat mintaq va uning hududlarida agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar investitsiyalarning asosiy manbai sifatida xizmat qilayotganligi hamda kelgusida xorijiy mablag'larni jalb etish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu sohada investitsion faollikni yanada oshirish maqsadida agrar infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni qabul qilish va uni izchil hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasida 2010–2025-yillarda investitsiya me'yori o'rtacha 19 foizni tashkil etgan. Lekin ushbu ko'rsatkich tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lgan bo'lsa-da, oxirgi yillarda pasayish holati aniqlandi. Ushbu holat mintaqada 2019–2024-yillarda amalga oshirilgan turizm sohasini rivojlantirish bilan bog'liq yirik loyihalarining amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Shunday bo'lsa-da, xizmatlar sohasining investitsiya me'yori viloyatdagi tarmoqlar orasida 2-o'rinni egallagan. Lekin viloyatning o'rtacha ko'rsatkichidan pastligicha qolmoqda. Bu esa sohani rivojlantirishga, ayniqsa, yuqori qo'shilgan qiymat zanjiriga ega tarmoqlarni, logistika, moliya kabi xizmatlarni rivojlantirishni talab etadi (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyati va uning tarmoqlarida investitsiya me'yori, foizda⁹

Yillar	Mintaqa iqtisodiyoti	Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar
2010	14,4	15,7	43,4	2,4	17,4
2011	16,2	17,4	47,3	2,5	21,2
2012	16,3	18,2	43,6	2,5	20,5
2013	21,6	22,9	46,8	3,4	25,4
2014	22,1	19,8	49,4	3,4	26,6
2015	17,1	13,8	38,3	2,7	21,7
2016	15,1	13,1	37,6	2,3	18,1
2017	16,1	12,6	46,5	2,6	13,7
2018	16,6	11	47,2	2,6	15,7
2019	22,6	21,9	34,5	7,9	13,5
2020	21,9	14,6	30,8	8	19,6
2021	26,8	13,5	35,3	13,8	17,6
2022	22,5	18,5	28,2	3,9	17,6
2023	25,7	16,6	26,3	6,5	16,9
2024	29,1	14,2	8,9	15,1	21,5
2025	35,9	30,4	32,4	4,1	17,2
O'rtacha	21,3	17,1	37,3	5,2	19

Yuqoridagilar qatori, mintaqaning muhim tarmoqlaridan biri sanalgan sanoatda ham investitsiya me'yori tebranuvchi holatni ifodalagan. Jumladan, mintaqada sanoat sohasida investitsiya me'yori o'rtacha 17,1 foizni tashkil etgan bo'lib, tebranuvchi tendensiyaga ega. Lekin, oxirgi yillarda mazkur ko'rsatkich ijobiy o'zgarishlarni ifodalab, 2025-yilda 30,4 foizga teng bo'lgan. Bu esa mintaqaning sanoat sohasida investitsion faollikni oshirishga, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga qaratilgan kreditlar ko'lamini ko'paytirishga e'tibor qaratishimizni talab etmoqda.

Mintaqada investitsiyaning iqtisodiyotga ta'sirini, ayniqsa, uning tarmoqlardagi holatining qo'shgan hissasini baholash muhim hisoblanadi. Bunda nafaqat miqdoriy, balki samaradorlik mezonlarini ham tadqiq qilamiz. Jumladan, bunday ko'rsatkichlardan biri sifatida kapital qaytimini o'rganamiz.

9 Хоразм вилояти Статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби.



Jumladan, Xorazm viloyati iqtisodiyoti bo'yicha 2010–2025-yillarda kapital qaytimi o'rtacha 5 birlikni tashkil etgan bo'lib, tahlil davrida uning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mazkur ko'rsatkich 2010-yilda 6,9 birlikdan 2025-yilda 2,8 ga qadar pasaygan (3-jadval). Shunday bo'lsa-da, tadqiqot davri davomida tebranuvchi holat qayd etildi. Ushbu salbiy tendensiyani ochib berish uchun ko'rsatkichning tarmoq va sohalardagi holatini ham baholadik.

Bunda qurilish sohasida kapital qaytimi 2010–2025-yillarda eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, tebranuvchi kattaliklarga ega bo'lib, yuqori holat 2024-yilda qayd etilgan. O'z navbatida, eng kichik qiymati 2014-yilga to'g'ri kelgan. Umumiy holda esa ko'rsatkichning tadqiqot davri boshidagi qiymatiga nisbatan 2025-yildagi ko'rsatkichida ijobiy o'zgarish bo'lgan va o'rtacha 3,2 ni tashkil etgan. Umuman olganda, qurilish sohasi kapital sig'imi yuqori bo'lib, uning faoliyati kapitaltalabchan soha sanaladi. Shunday bo'lsa-da, ushbu tarmoqda kapitaldan foydalanish samaradorligini yaxshilash uchun innovatsion faoliyatni keng tatbiq qilish, mavjud kapital omilidan foydalanishni maqbullashtirish zarur.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasi kapital qaytimi bo'yicha eng yuqori holatga ega bo'lmoqda. Shunday bo'lsa-da, tadqiqot davri davomida tebranuvchi holatga ega bo'lib, 2010-yildagi 42,5 birlikdan 2025-yilda 24,4 birlikka qadar pasaygan va o'rtacha 27,7 ga teng bo'lgan. Mazkur holat ushbu tarmoqda hanuz mehnat omilidan foydalanish yuqoriligidan dalolat beradi. Ya'ni, tarmoqning kapital bilan ta'minlanganligi, qishloq xo'jaligi mashinalarining yetarlilik darajasi pastligini ifodalaydi. Shu bois sohadagi asosiy vositalar ko'lamini oshirishimiz, ayniqsa, agrar infratuzilmani rivojlantirishimiz zarur. Buning natijasida investitsiyalar oqimi kengayib, mashina va jihozlar ko'lamini ortadi.

Yuqoridagilar qatori, xizmatlar sohasida ham kapital qaytimi nisbatan barqaror holatga ega bo'lmoqda. Jumladan, tadqiqot davrining boshidagi ushbu ko'rsatkich qiymati 5,7 birlikdan tadqiqot davri oxiriga kelib 5,8 ga oshgan va o'rtacha 5,4 ga teng bo'lgan.

Sanoat sohasida kapital qaytimi mintaqa iqtisodiyotiga nisbatan ijobiy bo'lib, sohalar orasida ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa-da, tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lmoqda. Jumladan, tadqiqot davrining boshida mazkur ko'rsatkich 6,4 birlik bo'lib, keyingi yillarda tebranib, 2025-yilda 3,3 ga teng bo'lgan va o'rtacha 6,2 birlikni tashkil qilgan. Shunday bo'lsa-da, 2017–2018-yillarda kapital samaradorligining yuqori holati qayd etilgan va 7,9–9,1 birliklar oralig'idagi ko'rsatkichlarga teng bo'lgan. Tadqiqot davrining oxirgi yilida yuz bergan keskin pasayish sohada investitsiyalarni diversifikatsiya qilishni talab qilmoqda. Bunda, ayniqsa, sanoatning tarkibiy tuzilishini, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarini rivojlantirish talab qilinmoqda. Shu bilan birga, sanoatda kapital samaradorligini oshirishda hududlararo nomuvofiqlikni ham kamaytirish zarur bo'lib, investitsiyalarni hududlar bo'yicha taqsimotini optimallashtirish talab qilinadi. Umuman olganda esa, hududlar iqtisodiyotida investitsiya siyosatini faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham takomillashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval
Xorazm viloyati va uning tarmoqlarida kapital qaytimi, birlikda¹⁰

Yillar	Mintaqa iqtisodiyoti	Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar
2010	6,9	6,4	2,3	42,5	5,7
2011	6,2	5,8	2,1	39,8	4,7
2012	6,1	5,5	2,3	40,4	4,9
2013	4,6	4,4	2,1	29,3	3,9
2014	4,5	5	2	29,4	3,8
2015	5,8	7,2	2,6	37,2	4,6
2016	6,6	7,6	2,7	44,2	5,5
2017	6,2	7,9	2,2	38,3	7,3
2018	6	9,1	2,1	37,8	6,4
2019	4,4	4,6	2,9	12,7	7,4
2020	4,6	6,8	3,3	12,6	5,1
2021	3,7	7,4	2,8	7,2	5,7
2022	4,4	5,4	3,5	25,6	5,7
2023	3,9	6	3,8	15,3	5,9
2024	3,4	7,1	11,2	6,6	4,6
2025	2,8	3,3	3,1	24,4	5,8
O'rtacha	5	6,2	3,2	27,7	5,4

10 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Mintaqada investitsiya samaradorligini soha va tarmoqlar, ayniqsa sanoatdagi holatini tahlil qilish uchun yuqoridagi ko'rsatkichga qarama-qarshi bo'lgan kapital sig'imini baholaymiz. Ya'ni, u tarmoqlar o'sishini ta'minlovchi investitsiya me'yori darajasini ifodalaydi. Jumladan, kapital sig'imi koeffitsiyenti (ICOR) mintaqada tebranuvchi holatga ega bo'lib, umumiy holda past samaradorlikni ifodalamoqda. Jumladan, eng past ko'rsatkich 2012-yilga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng yuqori daraja 2020-yilga to'g'ri kelgan, umumiy o'rtacha ko'rsatkich esa 5,7 ni tashkil etgan (4-jadval).

4-jadval
Xorazm viloyati va uning tarmoqlarida kapital sig'imi (ICOR), birlikda¹¹

Yillar	YAHM	Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar
2010	2,2	2,4	1,5	1,0	1,2
2011	2,4	1,3	1,5	4,8	0,9
2012	1,8	2,8	2,0	0,2	1,1
2013	2,2	2,0	1,8	0,4	1,2
2014	3,0	0,9	15,4	0,5	1,7
2015	1,9	0,5	2,4	0,5	1,4
2016	3,2	-1,9	20,9	0,3	1,1
2017	3,6	0,7	5,7	1,8	1,7
2018	5,3	1,4	3,4	-1,3	2,5
2019	3,2	2,9	1,8	1,9	1,0
2020	42,9	2,4	-11,8	3,3	-3,1
2021	2,6	0,8	1,1	4,1	0,6
2022	3,1	1,2	15,7	1,0	1,1
2023	5,4	2,6	3,7	1,5	1,4
2024	4,7	2,0	0,4	4,7	1,6
2025	4,5	3,6	2,3	0,8	1,1
O'rtacha	5,7	1,6	4,2	1,6	1,0

Shunday bo'lsa-da, 2010–2013-yillarda ICOR koeffitsiyenti nisbatan barqaror bo'lib, 1,8–3,0 oralig'idagi kattaliklarni ifodalagan. Shu bilan birga, 2020-yildagi ushbu ko'rsatkichning keskin o'sib, 42,9 ga teng bo'lganini qurilish va xizmatlar sohasida manfiy qiymatlar qayd etilgani bilan asoslaymiz.

Jumladan, qurilish sohasida o'rtacha ICOR koeffitsiyenti 4,2 ga teng bo'lib, mintaqaning qolgan tarmoqlariga nisbatan samarasiz ekanligidan dalolat beradi. Bunda qishloq xo'jaligida mazkur ko'rsatkichning o'rtacha qiymati 1,6, xizmatlar sohasida 1,0 va sanoatda 1,6 birlikni aks ettirmoqda.

Sanoat sohasida kapital sig'imi tadqiqot davri davomida o'rtacha 1,6 ga teng bo'lgan bo'lsa-da, uning tebranishlari 1,3–2 oralig'idagi kattaliklarni ifoda etgan. Lekin oxirgi yilga kelib uning qiymati o'sgan va 3,6 ga teng bo'lgan. Bu esa sanoatda kapital sig'imi o'sganligini, ya'ni samaradorlik darajasi pasayganligini ko'rsatmoqda. Mazkur holatning oldini olish, uning salbiy tendensiyalarini bartaraf etish uchun kapital va mehnat omilidan optimal foydalanish zarur bo'ladi. Buning uchun sanoat sohasiga mos malaka va ko'nikmaga ega kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, mintaqada yangi barpo etilayotgan yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi soha tarmoqlari uchun mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni xorijiy mamlakatlarda davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalash orqali malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy o'sish sifatini oshirish uchun investitsiya samaradorligini yaxshilash, texnologik modernizatsiyani kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanish zarur bo'ladi.

Mintaqa iqtisodiyotida investitsiyalardan foydalanish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida kapital omili samaradorlikning muhim mezonini ekanligini aniqladik. Tadqiqot natijalarimizga ko'ra, hudud iqtisodiyotida investitsiyalar, ayniqsa, sanoat tarmog'iga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar mintaqada iqtisodiy

11 Хоразм вилояти Статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби.



o'sish va samaradorlikni belgilovchi muhim manba ekan. Ya'ni, barcha investitsiyalarning samaradorlik mezonini ko'rsatkichlari sanoat va umumiy mintaqadagi o'zgarishlarning uzviy bog'liqligini ifodalaganligini hisob-kitoblarimiz orqali aniqladik. Jumladan, tahlil natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, kapital qaytimi ko'rsatkichi sanoat tarmog'i bilan kuchli bog'liq. Ushbu tarmoqda kapitaldan foydalanish samaradorligi nisbatan yuqori. Bu esa sanoatda investitsiyalar nafaqat hajm jihatidan, balki sifat jihatidan ham iqtisodiy o'sishga kuchli multiplikativ ta'sirga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalarimizga ko'ra, Xorazm viloyati iqtisodiyotida sanoatda investitsiyalarni kengaytirish, uning taqsimotini tarmoq va hududlar bo'yicha maqbul tarzda amalga oshirish zarur. Shu sababli hududiy iqtisodiy siyosatda sanoat tarmog'ini rivojlantirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish va kapitaldan foydalanishni optimallashtirish masalalariga e'tibor qaratishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Lizing to'g'risida"gi 756-I-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-85259>
2. Equipment Leasing and Finance Association (ELFA). Monthly Leasing and Finance Index, December 2025 (MLFI-25). Washington DC, 21 December 2025. URL: www.elfaonline.org
3. Finance & Leasing Association (FLA). Facts & Figures. London, 2025. URL: www.flas.org; Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL). Press Conference of the "LeasingMarket 2024". Berlin, 2024. URL: www.leasingverband.de
4. Giddy I.H. Global Financial Markets. New York: Oxford University Press, 2019. 480 p.; UNCTAD. World Investment Report. Geneva, 2023. 142 p
5. Leaseurope. Leaseurope Index Q4 2024 / Table 1: Aggregate Data, Q1 2023 – Q4 2024. Brussels, 2024. 3 b. URL: www.Leaseurope.org
6. Urazaliyev B.S. Xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro lizingning o'rni. Ilmiy maqola. Toshkent, 2025. 30 b
7. Армишева Т.Г. Основы общей экологии: учеб. пособие. Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2014. Ч.1. 200 с.
8. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini ekonometrik modellar yordamida istiqbollashtirish // IQTISOD VA MOLIYA / EKONOMIKA I FINANSYI. 2019,2(122). 20-26-b.
9. Umarov O.O. Sanoat siyosatini rivojlantirishning yo'nalishlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454. Volume 3, Issue 16, August, 2023. 19-26-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>